



FONETIK USLUB: NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY QIYMATI

**PHONETIC METHOD: THEORETICAL FOUNDATIONS AND
PRACTICAL VALUE**

**ФОНЕТИЧЕСКИЙ МЕТОД: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И
ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

Shavkatova Sevinch Shoyadbek qizi,

Qodirjonova Dilnura Oybek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Ilmiy rahbar: F.F. Usmonov f.f.d., dotsent

Annotatsiya: Mazkur ishda fonetik uslub masalasi tahlil qilinadi. Tilshunoslikda uslubiy qatlamlar ichida fonetik vositalarning roli va ahamiyati alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotda fonetik uslubning asosiy jihatlari – tovushlarning emosional-ekspressiv imkoniyatlari, urg‘u, intonatsiya, pauza kabi elementlarning uslubiy qiymati o‘rganiladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda fonetik vositalarning muallif niyatini ifodalashdagi ahamiyati, obraz yaratishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, zamonaviy lingvistikadagi fonetik stilistika yo‘nalishlari, olimlarning qarashlari tahlil qilinib, fonetik uslub vositalarining uslubiy funksiyalari misollar asosida yoritiladi.

Аннотация: В данной работе анализируется проблема фонетического стиля. В языкознании роль и значение фонетических средств занимают особое место среди стилистических пластов. В исследовании рассматриваются основные аспекты фонетического стиля — эмоционально-выразительный потенциал звуков, стилистическое значение таких элементов, как ударение, интонация и пауза. Особенно в



художественных текстах показано значение фонетических средств в выражении авторского замысла и их роль в создании образа. Также анализируются тенденции фонетической стилистики в современной лингвистике, взгляды ученых, на примерах иллюстрируются стилистические функции фонетических стилистических приемов.

Annotation: This work analyzes the issue of phonetic style. The role and significance of phonetic means among the stylistic layers in linguistics occupies a special place. The study studies the main aspects of phonetic style - the emotional-expressive capabilities of sounds, the stylistic value of elements such as stress, intonation, pause. In particular, the importance of phonetic means in expressing the author's intention in literary texts, their role in creating an image are shown. Also, the directions of phonetic stylistics in modern linguistics, the views of scientists are analyzed, and the stylistic functions of phonetic means are highlighted on the basis of examples.

Kalit so'zlar: fonetik uslub, alliteratsiya, assons, intonatsiya, emotsional-ekspressivlik, o'zbek tilshunosligi, fonetik uslubi, morfologik uslubi.

Keywords: phonetic style, alliteration, assonance, intonation, emotional expressiveness, Uzbek linguistics, phonetic stylistics, morphological stylistics.

Ключевые слова: фонетический стиль, аллитерация, ассонанс, интонация, эмоционально-экспрессивность, узбекское языкознание, фонетическая стилистика, морфологическая стилистика.

Tilshunoslikda uslubi (stilistika) tili ifodalash vositalarining estetik va kommunikativ imkoniyatlarini o'rganuvchi muhim sohaga aylangan. Ayniqsa, so'zning tovush jihatlari, ya'ni fonetik darajadagi uslubi, badiiy ifoda vositalari tizimida muhim rol o'ynaydi. Fonetik uslub tilning emotsional, obrazli va ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada fonetik uslubning nazariy



asoslari, uslubiy vositalari hamda ularning adabiy va ogʻzaki nutqdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Fonetik uslubiyat tilshunoslikning fonetika, fonologiya va morfonologiya sohalarining tekshirish obyekti boʻlgan nutq hodisalaridan qanday maqsadlarda, uslubiy-ekspressiv jihatdan nimalarni koʻzlab foydalanish yuzasidan bahs yuritadi.¹ Mohiyat va vazifa eʼtibori bilan intonatsiya va toʻxtam fonetik vosita emas, balki uslubiy vositadir. Lekin ular nutq hodisasi" sifatida talaffuz bilan, tilning tovush tomoni bilan zich bogʻlanganligi tufayli fonetikada oʻrganiladi. Uslubiy ekspressiya nuqtai nazaridan til fonetik vosita matcriallaridan adabiy orfografik normalardan «clietga chiqib» foydalanish muhimdir. Adabiy orfoepik normalar doirasida yoziladigan soʻzlar talaffuzidagi oʻzgalik va, umuman, tovushlarning kombinator rapozision oʻzgarishlari ekspressiya hosil qilmaydi. Ular faqat ioʻzlashuv-ogʻzaki nutq uslubiga xosligi bilan ajralib turadi, xolos. ular normativ grammatika oddiy uslubiyatning oʻrganish va tadqiq obyektidir. ; Fonetik ekspressiya hosil qiluvchi vositalar, asosan. Quyidagilardan iborat unlini choʻzish. Maʼlum bir soʻzdagi unlini choʻzish (kvan- itativ urgʻu) orqali soʻzlovchi mazkur unli ishtirok etgan soʻzning naʼnosini boʻrttiradi, diqqatni shunga jalb qiladi, nutq paytida shu soʻzga qoʻshimcha maʼno yuklaydi va shu bilan ekspressiya hosil qiladi: bosiq tovush bilan dedi: Koʻp yaxshi, keng xona, shirin tabasum kabi; b / unlini kuchli talaffuz qilish (unliga zarb urgʻusi berish) bilan. Bunda soʻzlovchi oʻz nutqida keskinlik tusini beradi, fikr-ning qatʼiy va ishonchli ekaniga ishora qiladi, aniqlanuvchining boshqa shu turdan ajralib turishini taʼkidlaydi va shunday qilib, butun gapga qoʻshimcha vazifa yuklaydi: sizni ancha kutdim, tez kel, darrov joʻna kab; v / undoshni ikkilantirish bilan soʻzlovchi fikr obyektiga nis-batan oʻzining munosabatlarini, his-tuygʻularini ifoda etadi, maʼno kuchaytirishga intiladi, undoshi

¹ Xusanboyeva Q. (2021). Stilistik vositalar va ularning nutqdagi funksiyasi. Toshkent: Fan.



ikkilangan so'zga diqqatni jalb etadi: ...hammasiga sen muttaha aybdor. Ayyorlikda uchchiga chiqqan. Mazza qiiib o'tirdik; CJnsin yumm-yumm yig'ladi. Nima haqqing bor! g / ohang orqali gap mazmuni (darak, so'roq, uaaov) o'zgarishidan tashqari piching, kesatiq, jerkish, achinish, koyish, shodlik, sevinch-quvonch kabilami ifoda etadi. Demak, intonatsiya ma'noni kuchaytirish, bo'rttirishga xizmat qiladi.

MORFOLOGIK USLUBIYAT

Til morfologik vositalarning uslubiy xususiyatlarini belgilashda, asosan, ekspressiya bilan bog'liq bo'lgan tomonlarni nazarda tutmoq lozim, chunki so'z turkumlarining asosiy shakllari, masalan, atoqli ot, turdosh ot, qo'shma ot, sifat, asliy, nisbiy sifat, son, son turlari, fe'l, fe'l shakllarining bir qismi kabilar ekspressiya jihatdan uslubiy xususiyat kasb etmasligi mumkin. Masalan, ionlarning hamma nutq janrlarida ishlatilishi mumkinligini alohida ta'kidlash uchun zarurat yo'q, negaki bu izoh talab qilmaydigan iksiomadir.²

Ot formalarining uslubiy xususiyatlari dastlab ko'plik ko'rsatkichlari, turlovchilar va subyektiv baho ifodalovchi affikslar misolida zarur etadi. Til va tafakkur taraqqiyotining bugungi bosqichida insonlar obyektiv olam va uning hodisalaridagi eng olis, ko'z ilg'amas nuqtalaridagi nozik tomonlarm, eng nafis ottenkalarni ilg'ab olmoqdalar va uni tilda mumkin qadar aniqroq, batafsilroq bayon etishga intilmoqdalar. Ana shu zarurat, intilish oqibatida bir shaklni ikkinchi bir mazmun ifodasi uchun qo'llasli hodisasi ko'payib bormoqda. Demak, formalarning mazmun taraqqiyoti, obykti real borliq va real voqelikdir.

O'zbek tilida «ko'plik» degan tushuncha kategoriya sifatida muxsus affikslar orqali ifodalanadi. Bu formaning asosiy vazifasi predmetning birdan ortiq

² Maxmatqulova M. (2024). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: Ilm Ziyο.



ekanligini ko'rsatishdir. Ilg'or fermerlar qisqa muddatda o'z majbunyatlarini bajardilar. Hozirgi o'zbek adabiy tilida egalik affikslarining variantlari juda kam: -ngiz, -ingiz, -nglar, -inglar, ba'zan -laring. -ingiz formasi adabiy va so'zlashuv uslubida bir xil mazmun uchun xizmat qiladi. Qolganlari so'zlashuv dialektal nutqiga xosdir.

Sifatlar barcha nutq uslublarida keng qo'llanadigan uslubiy vosita bo'lib, nutq jarayonida fikr yuritilayotgan predmetlarni alohida ajratib ko'rsatishga, obyektiv olam narsa-hodislarini aniq ifodalashga yordam beradi. Ular poetik vosita sifatida badiiy ijod- da sifatlashlar -epitetlar hosil qilishda qo'llanadi va kishi-o'quvchi va tinglovchida badiiy-estetik zavq uyg'otishga, ta'rif va tavsifni kuchaytirishga, bo'rttirishga omil bo'ladi. Masalan: Quyosh g'uborsiz ko'kda taltayib porlaydi. Bu gapda «g'uborsiz» sifati qo'llanish bilan kishining ko'z o'ngida ko'm-ko'k va bepoyon osmon kengligi gavdalanadi.

Sonlar predmet yoki ish-harakatning noma'lum, umumiy miqdoriga aniqlik kiritib, obyektiv voqelik yuzasidan aniq tushuncha, tasavvur hosil qilishga xizmat etadi. Bu jihatdan ular sifatga o'xshaydi, lekin sifatlar predmetni belgiga ko'ra ajratadi, sonlar esa miqdorga ko'ra: qirmizak olma oldim-tur ajratilgan, to'rt kilo olma oldim - tur ahamiyatsiz nomalum miqdorda aniqlik. Ma'lum bir sharoitda miqdor haqida tinglovchi aniq tasavvurga ega bo'lishi nazarda tutilganda, vaziyat shuni taqozo etganda, so'zlovchi aniq miqdor bildiruvchi, miqdorning aniqligi muhim bo'lmay, umuman, predmet, harakat-holatning biror mo'ljaldaligi yoki takrori nazarda tutilganda, taxminiy sonlar qo'llanadi. Masalan: O'n besh kundan keyin traktorchi nomini oldim. Keyinchalik Haydar ikkovi oshno bo'lib qoldi. A . X . To'rt yuz-besh yuz qo'yni ovozidan taniydiya. (P.Qodirov) Aka-singil ikki-uch mushtidan oshiqalar yerga sochilib ketdi. (P.Qodirov) .Miqdor va dona sonlar hamma nutq uslublariga xos bo'lib, nutq paytidagi aniq miqdor haqida ma'lumot beradi. Bunday sonlar maxsus fonetik vositalar G«urg'u berish» cho'zish) siz



ekspressiv xususiyat kasb etmaydi; Chama sonlar og'zaki va badiiy nutq uslubiga xos bo'lib, ilmiy va rasmiy ish uslubida juda kam ishlatiladi. Ular muayyan nutq jarayonida miqdor predmet, harakatning birdan ortiqligini, lekin tinglovchi uchun bu miqdorning aniq emas, umumiy doirasigina ahamiyatli ekanligini ifodalashga xizmat qiladi.

Olmoshlarning bir qisml predmet, belgi yoki miqdor tushun-chasini bildirsa, ko'pchiligi o'sha predmetga nisbatan ishora qiladi. Belgi yoki miqdorda ishora tushunchasi nisbatan kam ishlatiladi. Masalan: Shuncha daftarni nima qilasan, gapidagi «shuncha» olmoshi miqdor s o n o'rnida emas, balki miqdorga ishoradir olmoshlar yozma va og'zaki nutqda ortiqcha takrorlarga, nutqiy noqulaylikka, g'alizlikka chek qo'yadi. Demak, nutqiy ifodalilik va ravonlik, ixchamlikka xizmat qiladi

Obyektiv olamni voqea-hodisasi yuzasidan axborot berish va olish, inson his-tuyg'ulari va borliqqa munosabatlari fe'l formalari orqali ifoda etiladi. Shuning uchun ham fe'l formalarining qo'lla- nishidagi oziga xosliklar uslubiy jihatdan goyat muhimdir.³ Nutqda fe'l formalarining grammatik jihatdan to'g'ri qo'llanishi oddiy uslubiyatga xos bo'lib, fikrni to'g'ri va aniq bayon etishda asosiy vosita, mezon hisoblanadi. Fe'l mayllarining har biri nutq vaziyatiga ko'ra turlicha modal munosabatlarini ifodalashi mumkin. Masalan, hamma ishla- yapti, sen dam olib o'tiribsan gapida «dam olib o'tiribsan» fe'li axborot emas, balki koyish, norozilik, afsus ottenkasini beradi. Bu yerdan hoziroq het gapida «ket» fe'li oddiy buyruq ma'nosiga qistash /a c h in ish /, qat'iy buyruq, do'q urish kabi ottenkani qo'shadi va hakoza.

Nutq jarayonida ish-harakat bilan bog'liq bo'lgan holat, o'rin, payt, sabab, maqsad va miqdor tushunchalari yuzasidan ma'lumot berish ko'zda tutilganda,

³Husanboyeva Q., Niyozmetova R. (2022). "Fonetik vositalarning stilistik yuklamasi". // O'zbek tili va adabiyoti jurnali,



ravishni u yoki bu turidan foydalaniladi. Holat ravishlari, ayniqsa, -ona, -larcha, -day, -dek formalari orqali hosil qilingan ko'rinishlari og'zaki va badiiy uslubga xos bo'lib, nutqqa ko'tarinkilik, joziba baxsh etadi, voqelikni bo'rttirib ifodalaydi dushmanga qarshi mardona kurashdi. Choqqilar osmon bilan tutashgandek ko'rinadi. Jangovar topshiriq mardlarcha bajarildi kabi.

Fonetik uslub – bu nutqning tovush qatlamiga oid uslubiy xususiyatlarini ifoda etuvchi til qatlamidir. U tovushlar, urg'u, intonatsiya, pauza, tovush takrorlari, ohang va nutq tempiga oid elementlarni o'z ichiga oladi. Bu vositalar orqali matnga badiiylik, emotsionallik, obrazlilik va ta'sirchanlik baxsh etiladi. Fonetik vositalar nafaqat poetik matnlarda, balki siyosiy nutqlar, teatr san'ati, ommaviy axborot vositalari hamda kundalik muloqotda ham keng qo'llaniladi.

Alliteratsiya – bir xil yoki o'xshash undosh tovushlarning takrorlanishi: "Ko'ksimda to'lg'ondi to'lqinlar, to'xtamay" Bu misolda "t" tovushining takrorlanishi ritmik, obrazli va hissiy tus beradi. Assonans – bir xil yoki o'xshash unli tovushlarning takrorlanishi: "Oy sayr qiladi soyada, hayol hayolga hayron." Onomatopoeiya – tovushlarni tabiatdagi tovushlarga taqlid shaklida ifodalash: "Shuvilladi shamol, g'uvilladi daraxtlar." Urg'u va intonatsiya – gapdagi ma'no urg'usini ta'kidlash, ohang orqali hissiy yuklama berish. Pauza – dramatik nutqda yoki poetik matnda emotsional pauzalar yordamida diqqatni jamlash.

O'zbek tilshunosligida fonetik uslub masalasi bo'yicha bir qancha olimlar tadqiqot olib borgan. M. Jo'rayev fonetik stilistika tushunchasini keng talqin qilib, tovushlarning estetik funksiyasini yoritgan. G'. Rahmatullayev fonetik vositalarning badiiy matndagi obrazlilikka xizmat qilishini ta'kidlagan. T. Hojimurodov esa fonetik uslub vositalarining teatr nutqidagi ifoda kuchini alohida o'rgangan. Zamonaviy stilistikada fonetik vositalar lingvopoetik tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tilshunoslikda, xususan, R. Jakobson, S. Levin kabi olimlar fonetik ekspressivlikni poetik tilning asosiy komponentlaridan biri deb



baholashgan. Fonetik uslubning amaliy ahamiyati Fonetik uslub faqat badiiy nutqda emas, balki teatrdagi, radio va televideniye chiqishlarida, siyosiy va notiqlik nutqlarida, pedagogik nutqda keng qo'llaniladi. Ayniqsa, dramatik asarlar sahnalashtirilganda intonatsiya, pauza va urg'ular orqali obrazlarning ruhiy holati ifodalanadi. Shuningdek, fonetik uslub vositalari tarjima ishlarida, nutq madaniyatini o'rgatishda, til o'rgatish metodikasida ham muhim rol o'ynaydi.⁴

Inson tili tovush tili bo'lganligi uchun tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasida namoyon bo'ladi. Adabiy asarlarning badiiyligini ta'minlovchi fonostilistik asoslardan biri — tovushdir.

Tovushlar, shuningdek, urg'u va intonatsiya poetik asarlar ohangdorligini, emotsional ta'sirchanligini oshirishda muhim stilistik vosita bo'ladi. So'z, ibora va so'z shakllarda bo'lgani kabi, tovushlarda ham ma'lum uslubiy bo'yoq ifodalanadi. Nutq tovushlaridagi emotsionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari, estetik roli fonetik stilistikaning o'rganish obyekti. Shu jihatdan olganda, fonetik vositalar ham emotsionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlikni ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Tabiiyki, nutqda emotsional-ekspressiv vazifa fonetik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ya'ni, nutq tovushlarini cho'zib talaffuz qilish yoki birdan ortiq yozish, fonetik jarayondagi turli hodisalar so'zlovchining nutq jarayoniga, voqelikka turli munosabatini ifodalaydi: kinoya, kesatq, g'azab, quvonch, taajjub va hokazo.⁵ "Ekspressiv fonetika" atamasi ilk bor tilshunos olim Sh. Balli tomonidan qo'llangan bo'lib, u o'z asarida fonetik uslubiy vositalarni keng tahlil etgan. Rus tilshunosligida R.I. Avanesov, V.V. Vinogradov, N.S.

⁴ Saidova G. (2024). She'riy nutq va fonetik ifoda. Buxoro: Adabiyot nashriyoti.

⁵ Ro'zmetova M. (2023). "Fonetik ifodaning badiiy uslubdagi o'rni". // Filologiya masalalari,



Trubetskoy, L.V. Shcherba va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilshunosligida ham muayyan tovushlarning nutq uchun xoslanishi, tovushlarning poetik salmog'i, ularning turli assotsiatsiyalar bilan bog'lanishi, nutq tovushlari sistemasida ekspressivlikni ifodalash jihatidan unli tovushlarning imkoniyati kengligi, shuningdek, ta'sirchanlikni oshirishda undosh tovushlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning o'rni xususida bir qancha tadqiqotlar maydonga kelgan.

Talaffuz stillari. Ma'lumki, kishilar kundalik aloqa jarayonida so'z va so'z shakllarni turlicha talaffuz qiladilar. Bu e'tiborsizlik, tez gapirish, toliqish yoki hayajonlanish, charchash natijasida yuz beradi. Tildagi so'z va iboralar talaffuz qilinish xarakteriga ko'ra to'liq va noto'liq talaffuz stillariga bo'linadi.

To'liq talaffuzda so'z va iboralardagi barcha tovushlar, bo'g'in va urg'uga e'tibor beriladi. Noto'liq talaffuzda esa bunga e'tibor berilmaydi. Nutqning vazifa uslubi bilan bog'liq holda talaffuzning ham uch uslubi farqlanadi: neytral talaffuz stili, kitobiy talaffuz stili, so'zlashuv talaffuz stili.

Neytral talaffuz uslubiga emotsional bo'yoqi bilan farqlanmaydigan, aloqa jarayonining asosini tashkil etadigan kundalik nutqiy talaffuz kiradi. Kitobiy (tantanali) talaffuz usulidan ommaviy nutqlarda, muhim axborotlarda, badiiy o'qishlarda foydalaniladi. Bunda tekis ritm, urg'ularni to'g'ri qo'yish, intonatsion ko'tarilish asosiy o'rinda turadi.

So'zlashuv talaffuz usuli jonli nutqda, dialoglarda, badiiy asarlardagi personajlar nutqiga xosdir. Bunda unlilarni cho'zish, tovushlarning o'rin almashtirishi, undoshlarni ikki lantirish, singarmonizm mavjud bo'ladi. Qo'shma so'zlarning ham talaffuzi aniq bo'lmaydi (masalan: "oltmish" – "olmish", "olib bor" – "obbor", "mening" – "mani", "o'n uch" – "o'nuch", "uzib olmoq" – "ussam").



Badiiy adabiyotda personajlar nutqi talaffuzi muhim uslubiy ahamiyatga ega. Chunki talaffuz orqali yozuvchi u yoki bu personajning bilimi, ijtimoiy holati, madaniyati va boshqa jihatlari bilan bog‘liq xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qiladi.⁶

Intonatsiya – tovushning baland yoki past ohang bilan aytilishidir. Intonatsiya so‘zlovchining o‘zgalarga qanday munosabatda ekanini, suhbatdoshiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Intonatsiya orqali nutq emotsional ekspressivlikka ega bo‘ladi. Og‘zaki nutqda ovozning ko‘tarilishi yoki pasayishi orqali ro‘yobga chiqadi, yozma nutqda esa turli tinish belgilar, kursiv yozuv bilan belgilanadi.

Badiiy asarlarda intonatsiyaning savol, xitob, darak, kinoya, g‘azab, ta’kid, o‘ksinish, qo‘rqinç, hayratlanish va boshqa ko‘rinishlari uchraydi. Intonatsion vositalardan: temp, tembr va urg‘u nutq egasining umumiy holati, hayajon va kayfiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Demak, fonetik vositalar ham, o‘z navbatida, so‘z ma’nosini kuchaytiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turli fonetik variantlarda ifodalanadi hamda har bir tilning o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Fonetik uslub tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki u tovushlar tizimi va stilistik vositalar orqali nutqning emotsional va estetik jihatlari kuchaytiradi. Fonetik vositalar, masalan, alliteratsiya va assonans, she’riyatda muhim rol o‘ynaydi va badiiy ifodaning kuchayishiga xizmat qiladi. Og‘zaki nutqda esa fonetik uslub orqali auditoriya bilan samarali muloqot o‘rnatiladi, bu esa nutqning ta’sirini oshiradi.

⁶ Tojiboyeva Z. (2023). Nutq madaniyati va fonetik vositalar. Namangan: Pedagogika nashriyoti.



Zamonaviy nutq jarayonlarida fonetik uslubdan foydalanish til va nutqni boyitadi, muallif yoki soʻzlovchining hissiy holatini, fikrini yanada aniq va taʼsirli ifodalash imkonini yaratadi. Shuningdek, fonetik uslub adabiyotshunoslik, teatr, jurnalistika kabi sohalarda ham qoʻllanilib, tilni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Demak, fonetik uslub tilshunoslikda va amaliy nutqda muhim vosita boʻlib, nutqning estetik va emotsional jihatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusanboyeva Q. (2021). Stilistik vositalar va ularning nutqdagi funksiyasi. Toshkent: Fan.
2. Maxmatqulova M. (2024). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: Ilm Ziyο.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. (2022). “Fonetik vositalarning stilistik yuklamasi”. // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali, №1.
4. Saidova G. (2024). Sheʼriy nutq va fonetik ifoda. Buxoro: Adabiyot nashriyoti.
5. Roʻzmetova M. (2023). “Fonetik ifodaning badiiy uslubdagi oʻrni”. // Filologiya masalalari,
6. Tojiboyeva Z. (2023). Nutq madaniyati va fonetik vositalar. Namangan: Pedagogika nashriyoti.
7. Xusanboyeva Q. (2023). Ogʻzaki nutq stilistikasi. Toshkent: Maʼrifat.
8. Usmonov F.F. (2020). Til va uslub: nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: Universitet.